

**KOVRAK (FERULA) O'SIMLIGINING KELIB CHIQISHI,
FIZIOLOGIYASI VA INSON HAYOTIDAGI O'RNI.**

Nurillayeva Sevinch Rahmatullo qizi

Xurramova Sevinch Ravshanovna

Choriyeva Mohiniso Akmal qizi

Xudoynazarov Javohir Shavkat o'g'li

IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Biologiya yo'nalishi 1kurs talabalari

Annotatsiya.. Ushbu maqolada juda ko'p dardlarga davo bo'lib kelayotgan dorivor kovrak o'simligini bugungi kunda dunyo va yurtimizda farmasevtika sanoatida keng ko'lamda foydalanib kelinayotgani, dorivor o'simliklardan olinadigan moddalarga bo'lgan talablar hamda Respublikamiz hududida dorivor o'simliklardan plantatsiyalarini tashkil etish ishlari kovrak o'simligining dorivorlik xususiyatlari tavsiya berilgan. Dorivor va oziq ovqat ahamiyatiga ega Ko'histon kovragi va sassiq kovrak turlari o'rganildi. Bu o'simliklarning ildizi, guli, poyasi, mewatanasi va urug'ining inson organizmda turli xil kasalliklarga davo bo'lishi ko'rib chiqildi. Bu o'simliklarning shirasi tarkibida fiziologik va biologik faoliyatga ega moddalar mavjud. Bu o'simlikni kosmetologiya sohasida temiratki sepkil, so'g'al va chandiqlarni yo'q qilishda ham foydalaniladi.

Kalit so'zlar: Ferula, eksport ildizi, poya, urug', mineral o'g'it, shira, farmasevtika, kvertsitin, plantatsiya, mochevina ko'histon va sassiq kovrak, kosmetologiya soxasi, alopesiya, Ibn Sino, dasht, cho'l, yelim-smola, o'rmon, ekstrimal, oqilona, bezgak, surunkali deareya, jigar, oshqozon va taloq xavfli o'smalar.

Kirish. Ferula L. turkumi turlari asosan tog' o'simliklari bo'lib, ular nisbatan

balandliklarda - dengiz sathidan 300 dan 3600 m gacha balandlikda, mayda toshli tuproqlarda ham, shag'alli yonbag'irlarda va toshloq joylarda ham uchraydi.

Adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, Janubiy Orolbo'yidagi sassiq kovrak o'simligining bioekologik xususiyatlari va ularga atrof-muhit omillarining ta'siri o'rganilmagan, shuningdek, ularni himoya qilish va oqilona foydalanish choralari ishlab chiqilmagan.

Hozirgi vaqtda O'rta Osiyo mamlakatlarida, xususan, o'simlik va hayvonot dunyosining turli xil vakillari uchraydigan Janubiy Orolbo'yi mintaqasida o'tloq, o'rmon, dasht, cho'l, o'rmon va boshqa ekotizimlarning biologik resurslari yomonlashmoqda. Ko'pgina turlar noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida qoldi. Janubiy Orolbo'yidagi boy biologik xilma-xillikning yo'qolib ketishi yuzaga kelmoqda, chunki so'nggi paytlarda aholi biologik resurslarni iqtisodiy va xo'jalik ishlariga ko'proq jalb qila boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 apreldagi Respublikada kovrak yetishtirishni rivojlantirish va sanoatlashtirishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida PF-116-son farmonlari xamda 2018 yil 20 martdagi "Respublikada kovrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom ashyosini qayta ishlash hajmlarini ko'paytirish xamda eksport qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3617 Qarori asosida kovrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom ashyosini qayta ishlash uyushmasi tashkil etilgan va hozirgi kunda keng ko'lamli kovrak plantatsiyalari yaratilmoqda. Kovrak (Ferula) turkumi vakillari ziradoshlar oilasiga mansub o'simlik bo'lib, uning yer yuzida 170 dan ziyod turlari mavjud. O'rta Osiyoda 110 dan ortiq, mamlakatimizda esa 45 ta turi uchraydi. Smola-yelim olish uchun asosan 10 turi ishlatiladi. Bular sassiq kovrak,

Ko'histon kovragi va boshqa nomdagi kovraklardir. Bu turlar tashqi morfologik jihatdan bir-birlariga juda ham o'xshab ketadi, ammo tabiatda sassiq kovrak (Ferula assa-foetida L.) keng tarqalgan bo'lib, yelim-smola asosan shu turdan olinadi. Ushbu mikroorganizmlar turli xil sanoat jarayonlarida mavjud bo'lganlar bilan taqqoslanadigan ekstremal sharoitlarda ishlaydigan noyob biokatalizatorlarni ishlab chiqaradi. Kovrak o'simligi bir qarashda kishida keraksiz,

yovvoyi o'simlik sifatida taassurot qoldiradi.

O'zbekistonda hozirda dorivor o'simliklar xom ashyosini qayta ishlash bilan shug'ullanadigan korxonalar soni 130 tadan oshadi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda shifobaxsh o'simliklar xom ashyosini yetishtirish bilan shug'ullanuvchi 10 taga yaqin davlat tassarrufidagi, 10 taga yaqin ixtisoslashgan fermer hamda boshqa mulkchilik shaklidagi xo'jaliklar faoliyat yuritadi.. Lekin hozirgacha O'zbekistonda yetishtirilayotgan ko'plab shifobaxsh o'simliklarning, jumladan kovrakni yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi o'rganilganligi haqida ma'lumot bergan.

Kovrak (Ferula) o'simligining bo'yi 1.0 – 1.5 metrgacha yetadi, poyasi tik o'suvchi, ichi biroz g'ovak, yuqori qismidan shoxlangan, 7-9 yilida bir marotaba gullaydi. Ildizi baquvat, yo'g'on, tuproqning 1,5 metr chuqurligigacha boradi. Ildizning asosiy qismi 0.5 metr chuqurlikgacha borib, uning shakli silindirsimon, bochkasimon yoki tuxumsimon shaklda bo'ladi. Uning barglari yumshoq, tez so'liyidigan, ustki tomoni tuksiz pastki qismi esa oz-ozdan tukliroq. **Ildiz izimi:** Kovrakning ildiz tizimi asosiy qismi bo'lib, suv va oziq-ovqat mahsulotlarini va mineral moddalarni shimib olib ularni butun tana bo'ylab yetkazib beradi. Ayrim turlarida ildiz qismi chuqur, joylashgan bo'ladi boshqalarida esa yuzaki joylashgan bo'ladi. **Poyasi:** Poyasi to'g'ri, shoxlangan yoki shoxlanmagan bo'lishi mumkin. Ba'zi turlarida poya tekis bo'ladi. boshqalarida tikonlar yoki yuzasi notekis joylashgan bo'lishi mumkin. **Barglari:** Barglari oddiy, har xil shaklda bo'ladi masalan uchburchak, yumaloq yoki cho'zilgan bo'lishi ham mumkin. Ko'pincha barglari yashil yoki to'q yashil rangda bo'ladi. Lekin ayrim turlarining barglari kuzda sariq yoki qizg'ish tus oladi. **Gullari:** Gullari kichik va oddiy bo'ladi, ko'pincha shoxlarda joylashgan bo'ladi. Gulning shakli kovrakning turiga bog'liq bo'ladi, bir biridan ranglari bilan farq qiladi, lekin ularning barglari ko'pincha mayda sariq yoki yashil rangda bo'ladi. **Mevasi:** Kovrakning mevasi uch bo'lakli, urug'lardan iborat. Urug'lari juda kichik bo'ladi va erkin tarqaladi **Sut shirasining harakati:** Kovrakning barcha qismi sutli sharbat ajratadi, bu o'simlikning himoya mexanizmi, bo'lib xizmat qiladi. Ushbu sharbat zaharli

bo'ladi, shuning uchun uni saqlashda ehtiyot bo'lish kerak.

Kavrak o'simligining foydasi. Tabobatda tarkibida kishi organizmiga ijobiy ta'sir etuvchi, biologik fa'ol moddasi mavjud bo'lgan o'simliklar organlari ishlatiladi. Odatda dorivor mahsulotlar sifatida o'simliklarning ildizi, bargi, po'stlog'i, guli, mevasi va boshqa qismlaridan foydalaniladi. Biz fikr yuritmoqchi bo'lgan kovrak (ferula) o'simligining asosan yelimi-ildizidan olinadigan smolasi-shirasi tibbiyotda ishlatiladi.

Kovrakning foydasi judayam ko'p. Qadimda odamlar eng kop uning bazi foydali tomonlari xaqida yaxshi bilishgan, qolgan foydasi xaqida esa diyarli xech qanday ma'lumot yo'q. Sassiqlik kovrak shilimshiq chiqadigan balg'am tashlatadigan ta'sirga ega ko'krak qafasini tozalab ovozini tiniqlashtiradigan agar uni suvda etitib ichsa xirillagan ovoz ochiladi bundan tashqari u surunkali yo'tal va xronik ovoz xirillashishga qarshi yordam beradi. Agar uni yimirilgan tishga qo'ysa u o'g'riqni oldini oladi. U quloq og'riqlarini, quloqning yiringlashshi, karlik, quloqning shang'illashini davolaydi, bu uchun uni moyda qaynatib quloqqa tomizish shart. U asab kasalliklarini davolashda samarali vosita xisoblanadi. U asab kasalliklarini davolashda samarali vosita xisoblanadi. Sharq mamlakatlarida Eron, Pokiston, avg'oniston va Hindiston kovrak shirasi va ildizi oziq ovqat sanoatida ziravorlar sifatida kosmetika sanoatida keng ko'lamda ishlatiladi. Kasallikni davolash va uni oldini olish maqsadida dorivor o'simliklardan dori turlari tayyorlanadi yoki ulardan dorivor preparatlar va sof holdagi dorivor moddalar olinadi. Kovrak urug'ining qaynatmasi 3 maxal 50 gr ichilsa suti ko'payadi gepatit kasalligi tuzatiladi. Kovrak artitit va bo'g'im og'rig'ini davolashda yordam beradi. Asab tizimidagi buzilishlar va tutqanoqni davolashda juda samarali ekanligi, tish og'rig'i, mushak bo'g'imdagi og'riqlar, artrit, osteoxondrozda juda yaxshi natija berishi ma'lum. Sharq tabobatida mastopatiya, bepustlik, jinsiy ojizlikni davolashda ishlatilgan. Hazm bo'lishi qiyin bo'lgan taomlarni tayyorlashda taomga albatta qo'shiladi.

XULOSA. Kovrakning samarali ishlashi o'simliklarning o'sishiga va yashash qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, uning tuzilishi har bir o'simlik turi uchun o'ziga xos bo'lib, ekologik muhitda o'simliklarning to'g'ri rivojlanishini

ta'minlaydi. Bu o'zi navbatida , o'simliklarning ekologik tizimida muhim rol o'ynaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kovrak o'simligi inson organizmida bir qancha ichki va tashqi kasalliklarni davolashda turtki bo'ldi. Bu o'simlik soni kamayib ketayotgani uchun ko'paytirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu o'simlikni farmaseftik soxada, oziq- ovqat sifatida , kosmetologiya saxolarida keng qo'llanilib kelmoqdaShifobaxsh xususiyatlari ko'pligi sababli tibbiy maqsadlarda keng qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rahmonqulov U., Avalboyev O.N. O'zbekiston kovraklari (monografiya) // «Fan va texnologiya» nashriyoti, - Toshkent. 2016. 240-B.
 2. A.Abdullayev va b. “ Biologiyadan qisqacha izohli lug'at ” . 1. Rahmonqulov U., Avalboyev O.N. O'zbekiston kovraklari (monografiya) // «Fan va texnologiya» nashriyoti, - Toshkent. 2016. 240-B.
 - 3 . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 apreldagi Respublikada kovrak yetishtirishni rivojlantirish va sanoatlashtirishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida PF-116-son farmoni.
 4. Sobirjonova Nigina G'afurjon qizi Kovrak o'simligining dorivorlik xususiyatlari va uni biotexnologik yetishtirish istiqbollari Central asian journal of Education and Innovation 2022 yil.
 5. Sobirjonova Nigina G'afurjon qizi Kovrak o'simligining dorivorlik xususiyatlari va uni biotexnologik yetishtirish istiqbollari Central asian journal of Education and Innovation 2022 yil.
 - 6.. O`pratov, L.Shamsuvaliyeva, E.Sulaymonov, X.Axunov, K.Ibodov, V.Mahmudov. "Morfologiya, Anatomiya, sistematika, geobotanika"234-bet.
 7. .Nabiyev M. ‘SHifobaxsh ne'matlar ’’Toshkent .1994-yil
- a